

## FALSAFIY TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Berdibekova Hulkar Mavlonovna**

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti**  
**tayanch-doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14015997>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada izohli lug'atlarda falsafaga oid terminlarning semantik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** termin, falsafa, semantik, sema, semema, leksik kontekst, tilshunoslik, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

**Аннотация:** В данной статье говорится о семантических особенностях философских терминов в толковых словарях.

**Ключевые слова:** термин, философия, семантика, sema, semema, лексический контекст, лингвистика, метафора, метонимия, синекдоха, функция.

**Abstract:** This article talks about the semantic features of philosophical terms in explanatory dictionaries.

**Key words:** term, philosophy, semantic, sema, semema, lexical context, linguistics, metaphor, metonymy, synecdoche, task.

Tilshunoslikda so'z semantikasidagi o'zgarish metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi ma'no ko'chish yo'llari bilan amalga oshiriladi. O'zbek tilida falsafiy terminlarning semantik usul bilan paydo bo'lishi o'zbekcha ko'pincha, o'zlashma so'zlar: arabcha, lotincha, yunoncha, fransuzcha so'zlarni yangi falsafiy termin ma'nosida qo'llashdan iborat. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Tilshunoslikka oid terminlar falsafa termini vazifasida kelishi mumkin: *analogiya, kategoriya, sabab ergash gap, sifat, substrat, nisbiy, ikkilamchi, zamon, harakat nomi*;

-Iqtisod terminlari falsafa termini vazifasida kelishi mumkin: *bazis*,

-Huquqshunoslikka oid falsafa termini vazifasida kelishi mumkin: *analogiya, qonun*;

-Matematik terminlarning falsafa termini vazifasida kelishi mumkin: *miqdor, irratsional*;

-Diniy terminlarning falsafa termini vazifasida kelishi mumkin: *vahdat, haqiqat, panteizm*.

Semantik valentlikning yuzaga kelishida falsafiy terminlarning ham ahamiyati katta hisoblanadi. Semantik valentlikning vujudga kelishi uchun bir- biri munosabatga kirishayotgan, bog'lanayotgan ikki semamaning tarkibida bir xil semalar bo'lishi kerak. Masalan, *kechki payt* bog'lashuviga asos bo'lgan umumiy semani toppish uchun, birinchi navbatda, ikkala sememaning semik strukturasini toppish lozim. *Kechki* – "vaqt", "tunning boshlanishi", "kunning tugashi", "quyoshning botishi"; *payt* - "vaqt", "fursat, on", "davr, zamon", "qulay imkoniyat". Shunday ekan, yuqoridagi "vaqt" semasi aynan, umumiy bo'lib, u *kechki payt* uchun asos bo'lgan.

Semantik bog'langan ikki semema bir biri uchun belgilovchi leksik kontekst hisoblanadi. Polisemem leksema anglatayotgan barcha ma'nolarning-sememalarning sintagmatik imkoniyatlari, leksik kontekstlari bir-biridan farqli bo'ladi<sup>40</sup>. Demak, bundan ko'rinadiki, leksemalarning mazmun plani, sememalar va semalarning yuzaga chiqadigan imkoniyatlari farq qiladi. Buni *tajriba* falsafiy termini misolida ko'rib chiqamiz va leksik kontekstlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

| Semema                                                                                                                                                           | Leksik kontekst                                                                                         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Tajriba 1, muayyan maqsadda amalga oshiriladigan, bilish, aniqlash, sinash va sh.k.ga qaratilgan ish, faoliyat.                                                  | Tajriba o'tkazmoq, tajriba natijalari, tajribada sinab ko'rmoq,...                                      |
| Tajriba 2, amaliy ishda, hayotda o'zlashtirilgan, o'rnatilgan bilimlar, malakalar, o'quvlar majmui.                                                              | Hayotiy tajriba, pedagogik tajriba, ilg'orlarning tajribasini o'rganmoq, tajribalarni o'rtoqlashmoq,... |
| Tajriba 3, obyektiv dunyoni, voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni; obyektiv dunyo va ijtimoiy amaliyot qonunlarining kishi ongidagi inkiosi. | Hissiy tajriba, san'atkorning estetik tajribasi,...                                                     |
| Tajriba 4, bir masala, yo'nalishda dastlabki tarzdagi ish, harakat va uning mahsuli.                                                                             | Yosh ijodkorning birinchi tajribasi, o'z g'azallariga o'zi taxmis yozish tajribasi,...                  |

Sememalarni semalarga ajratishda izohli lug'atlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bugungi kungacha leksik ma'noni ma'no bo'lak;arga bo'lishda, sememalarni semalarga ajratishda O'zbek tilining izohli lug'ati muhim manbaa bo'lib xizmat qilmoqda. Quyidagi falsafiy terminlarni semik tahlilga tortamiz. Sabab- "vaj", "bahona", "bois", "hodisa". Tasavvur-"o'ylash", "xayol qilish", "ko'z oldiga keltirish", "o'ylab zehnda gavdalantirish". Semik tahlilda semalarni farqlovchi va birlashtiruvchi miqdori aniqlansa asosiy vazifa amalga oshirilgan bo'ladi. Bu falsafiy terminlarning birlashtiruvchi semalari yuzaga chiqqan.

### References:

1. A.Hojiyev. O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzish uchun qo'llanma
2. O'zbek tilining izohli lug'ati 1981-y
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 2008-y
4. M.Abdullayeva Falsafa ensiklopedik lug'at T-2010-y
5. S. Xolmirzayeva. Terminlarning yasash usul va yo'llari.Toshkent. 2022-y
6. М. Хакимова. Семасиология. Тошкент. 2008-й